



PALEOLIT DAVRI YODGORLIKLARI

ZARIPOVA ZIYODA

Tel:+998970962919

ziyodazaripova90@gmail.com

DTPI Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10398089>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10- December 2023 yil

Ma'qullandi: 15- December 2023 yil

Nashr qilindi: 18- December 2023 yil

KEY WORDS

Yuqori paleolit, Qadimgi tosh asri, Ko'lbuloq, Urug'chilik tuzumi, Evropaning yuqori hududlari, Orin'yak davri, Solyutre davri, Madlen davri.

ABSTRACT

Qadimgi tosh asri uch davrga bo'linadi: ilk paleolit, o'rta paleolit va so'nggi paleolit. O'rta Osiyodagi qadimgi tosh asri manzilgohlari va ularning madaniy qatlamlaridan topilgan ashyolarga qarab hukm chiqarilsa, bu o'lkaga odamlar juda erta kelib o'rnasha boshlaganligini bilish mumkin.

Ilk paleolit davri manzilgohlari Seleng'ur g'ori va Ko'lbuloq makonidan topib o'rganilgan. Farg'ona vodiysining So'x tumanida joylashgan Seleng'ur g'oridan tosh qurollar va odamnikiga o'xshash suyaklar topilgan. Tadqiqotchilarning fikricha, Seleng'ur topilmalarining yoshi bir million yildan ziyodroqdir. Ko'lbuloq makoni hozirgi Toshkent viloyatining Ohangaron tumani hududida bo'lib, Chotqol tog'ining janubiy yonbag'rida, Qizil olma soyining chap sohilidagi Ko'lbuloq manzilda joylashgan.

Abstract: The Old Stone Age is divided into three periods: the Early Paleolithic, the Middle Paleolithic, and the Late Paleolithic. Judging by the objects found in the Old Stone Age settlements and their cultural layers in Central Asia, it can be known that people started settling in this country very early.

The settlements of the first Paleolithic era were found and studied in Selengur cave and Kolbuluq area. Stone weapons and human bones were found in the Selengur cave located in the Sokh district of the Fergana Valley. According to researchers, the age of Selengur finds is more than one million years. The place of Kolbuluq is located in the territory of the Ahangaron district of the present Tashkent region, on the southern slope of the Chotkal mountain, on the left bank of the Kyzyl Alma stream, at Kolbuluq.

Аннотация: Древний каменный век делится на три периода: ранний палеолит, средний палеолит и поздний палеолит. Судя по предметам, найденным на поселениях древнекаменного века и их культурных слоях в Средней Азии, можно сказать, что люди начали селиться в этой стране очень рано.

Поселения первой эпохи палеолита были обнаружены и изучены в пещере Селенгур и местности Кольбулок. Каменное оружие и человеческие кости были найдены в Селенгурской пещере, расположенной в Сохском районе Ферганской долины.

По оценкам исследователей, возраст селенгурских находок составляет более миллиона лет. Место Кольбулок расположено на территории Ахангаронского района нынешней Ташкентской области, на южном склоне горы Чоткал, на левом берегу ручья Кызыл-Алма, у Кольбулука.

Key words: Upper Paleolithic, Old Stone Age, Kolbulok, Seed production system, Upper regions of Europe, Aurignacian period, Solutre period, Madeleine period

Ключевые слова: Верхний палеолит, Древнекаменный век, Колбулок, Система семеноводства, Верхние регионы Европы, Ориньякский период, Период Сolutра, Период Мадлен

Paleolit - yangi tosh asrlariga bo'lib o'rganish dastlab 1865-yil ingliz arxeologi J. Lebbok tomonidan fanga kiritilgan. Paleolit quyi (ilk), o'rta va yuqori (so'nggi) qadimiy tosh davrlariga bo'linadi. Paleolit eng qadimiy ibtidoi odamlar hayot kechirgan ulkan tarixiy davr hisoblanadi.

O'sha qadimiy davrda yer kurrasining iqlimi, o'simlik va hayvonot dunyosi biz yashab turgan davrdan mutlaqo o'zgacha bo'lib, undan keskin farq qilgan. Paleolit davrining ibtidoi odamlari kertilgan dag'al tosh qurollardan foydalanganlar. Ular tosh qurollarga sayqal berish hamda sapol idish yasashni hali bilmaganlar. Ular asosan, ovchilik va termachilik bilan kun kechirib, ibtidoi dehqonchilik va chorvachilik kabi mashg'ulotlarni hali kashf etmaganlar. Bundan 40 ming yillar ilgari kishilik jamiyati tarixida yuqori paleolit deb ataluvchi davr boshlanadi. U xronologik jihatdan arxeologik davrlashtirishda miloddan avvalgi 40-12 ming yilliklar bilan belgilanadi. Yuqori paleolit odamning zamonaviy jismoniy tipini shakllantirgan, ibtidoiy to'da davri vayronalarida kishilik jamiyatining dastlabki bo'g'ini ibtidoiy jamoani tarkib toptirgan, tosh qurollar ishlashda yangi yutuqlarni vujudga keltirgan davrdir. Ibtidoiy to'dadan ibtidoiy jamoaga o'tishda toshdan mehnat qurollari yasash texnikasida, ibtidoiy xo'jalik shakllarida, ibtidoiy odamning turmush tarzida, ularning ijtimoiy munosabatlarida, dunyoqarashida, hatto odamning jismoniy tuzilishida ham keskin o'zgarishlar yuz berdi.

Yuqori paleolit davrida odamlar muz davrining sovuq iqlimida yashagan. Must'e davri oxirlarida muzlikning chekinishi, katta hududlarda tundra tabiati sharoitidagi o'simliklar o'sa boshlashiga imkon bergan. Shuningdek janubiy, muzlik etib bormagan o'lkalarda havoning isishi natijasida o'rmonlar ko'payib, turli daraxtlar keng tarqalgan. Yuqori paleolitda yirik hayvonlar mamontlar, bug'ular, junli karkidonlar, yovvoyi otlar mavjud bo'lib, ular paleolit davri odamlarining ehtiyojini qondirish manbalari hisoblangan. Ammo ob-havoning keskin o'zgarishi tabiatda yirik hayvonlarning kamayishiga olib kelgan. Yuqori paleolit davri oxirlarida mamont kabi yirik hayvonlar yo'q bo'lib ketadi. Bu hodisa odamlarning yashash sharoitida ma'lum o'zgarishlar bo'lishiga sabab bo'ladi.[2]

Yuqori paleolit moddiy madaniyati o'z xususiyatlari va ishlanish usuli bilan oldingi tosh qurollar davriga nisbatan ancha takomillashadi. Ya'ni bu davr tosh qurollari to'g'ri va uzun shaklda bo'lib, asosan pichoq sifatida ishlatilgan. Shuning uchun arxeologiyada yuqori paleolit qurollari pichoqsimon qurollar deb ataladi. Qurollar kesuvchi va shiluvchi xususiyatlarga ega bo'ladi. Yuqori paleolit moddiy madaniyatida ko'zga tashlanadigan muhim xususiyatlardan biri-qurol yasashda yangi xom-ashyo suyakdan keng foydalanish edi. Masalan, suyakdan garpunlar, ignalar yasalgan. Tabiat bilan uzoq vaqt yashash zarurati uchun kurashgan inson katta hayot tajribasiga ega bo'la boshladi. Chunki, ilk paleolit mo'tadil havosi, o'rta paleolit muzligi va

so'nggi paleolit sovu'gi odamni yashash uchun kurashga o'rgatdi. Natijada odamlar ehtiyoj tufayli o'zlariga qulay bo'lgan hududlarga o'rnasha boshladi. Ma'lumki, muz qoplagan davrda (gints, vyurm, ris va mendel bosqichlarida) odamlar sovuqdan saqlanish uchun tog' yon bag'irlarida yoki baland tog'larda mavjud bo'lgan g'orlarda yashagan. Muzlikning ortga siljishi natijasida ular vodiylar, daryo bo'ylari... past tekisliklarga siljib, o'z makonlarini qurgan. Yuqori paleolit makonlarida o'rganilgan xo'jalik yuritish vositalari oldingi davrga nisbatan yuqoriroq darajadagi ijtimoiy hayot bo'lganligidan guvohlik beradi. Xo'jalikning asosiy mashg'uloti ovchilik bo'lib, u bu davrda erkaklar va ayollar o'rtasidagi mehnat taqsimotiga olib keladi. Erkaklar ovchilik mashg'ulotlari, ayollar esa terimchilik mashg'uloti bilan shug'ullangan. Ehtiyojni qondirish ayollar zimmasida bo'lgan. Ya'ni kiyim tikish, bolalar tarbiyasi, ovqat pishirish, murakkablashayotgan xo'jalikni boshqarish, uyni va muqaddas olov – o'choqni asrash, mehnat qurollarini qo'riqlash kabi mas'uliyatli vazifa ham ayollar zimmasida edi.[2] Yuqori paleolit davrining eng muhim sifat o'zgarishi bu ibtidoiy jamoaning shakllanishi edi. Dastlab jamoa onalar atrofida paydo bo'ladi. Qon-qardoshlik hislarini anglagan kishilar guruhi urug'larni tashkil etadi. Bu davrda kishi urug'-urug' bo'lib, yagona boshpana ostida emas, balki alohida o'zlariga tegishli qurollar va o'choqlari bo'lgan manzillarda yashagan.

Urug'chilik tuzumining dastlabki bosqichi-matriarxat deb, uning asoschisi va poydevori bo'lgan onalar nomi bilan ataldi. Biz yuqorida so'nggi paleolitda ayollar va erkaklar o'rtasida mehnat taqsimoti ro'y berganligini aytgan edik. Ayollarning ijtimoiy hayotdagi mavqei ularga yuklagan vazifalarda namoyon bo'ladi. Ya'ni xo'jalikni boshqarish, uyni, muqaddas olovni asrash bo'lgan

Ma'lumki, paleolitning so'nggi bosqichigacha ibtidoiy to'dada guruhli, tartibsiz nikoh munosabatlari hukmron edi. Ammo yuqori paleolit davrida oila-nikoh munosabatlari tartibga solina boshladi. Shuni ta'kidlash joizki, bir-birlari bilan qarindoshlik iplari bir bo'lgan, kelib chiqishi jihatidan bir urug'dan tarqagan odamlar guruhida nikoh bobida «guruhli nikoh» tizimi hukmronlik qiladi. Guruhli nikoh odatiga ko'ra ota noma'lum qoladi. Qon-qarindoshlik ona urug'i doirasida rasmiylashadi. Bir urug'ning erkaklari ikkinchi urug'ning ayollari bilan jinsiy aloqada bo'ladi. Tabiiyki, aniq sherik bilan jinsiy aloqa qilish hali yo'lga qo'yilmaydi. Urug' ichidagi nikoh o'rniga urug'lar orasidan nikoh munosotalariga o'tiladi. U fanda ekzogamiya deb ataladi. Jamiyatda urug'lar o'rtasida guruhli nikohlar saqlanib, avlod ona urug'i orqali davom etadigan bo'ladi. Bu esa o'z navbatida onaning o'rni va uning ijtimoiy hayotdagi rolini mustahkamlaydi. Yuqori paleolitda sekin-asta juft oilalar ham paydo bo'la boshlaydi. Odamlarning ongi va dunyoqarashi o'sib boradi. Ular qon-qardoshlik hislarini anglab, birgalikda yasash uchun birlashishga intiladilar.

Yuqori paleolitda bir necha urug'lar qarindoshlik munosabatlarini o'rnatadi. Bu munosabatlar dastlab urug'lar orasidagi guruhli nikoh orqali shakllanib, uning asosida yangi urug'ga nisbatan ko'lam keng bo'lgan jamoat tashkiloti - qabilalarni vujudga keltiradi. Qabilalar urug'lar ittifoqi bo'lib, ular o'ziga xos jamoa tashkiloti edi. Qabilalar o'z hududi va ov qilish joylariga ega bo'ladi.

Yuqori paleolit kishilari ovchilik, terimchilik va baliqchilik kabi xo'jalik mashg'ulotlari bilan shug'ullangan. Ovchilik xo'jalikning asosi bo'lib, mehnat va ov qurollari orasida o'tkir uchli nayzaning kashf etilishi ovdan keladigan kundalik tirikchilik daromadini ko'payishiga olib kelgan. Baliq ovi xo'jalikda asosiy rol o'ynamasa-da bu sohaning kashf etilishi ibtidoiy xo'jalik uchun katta ahamiyat kasb etar edi. Termachilik ham ovchilik bilan bir qatorda o'zining yangi

imkoniyatlarini bera boshlaydi. Ya'ni odamlar ilk bora yovvoyi boshqoli o'simliklardan foydalanish yo'llarini izlab topadilar. Yuqori paleolitning yana bir xususiyatli tomoni shundaki, bu davr odamlari o'zlariga yashash uchun doimiy kulbalar qurishni kashf etdilar. Ular dastlabki erto'lalar, yarim erto'la va chayla shaklidagi kulba (uy)lar edi. Uylar odatda aylana, yarim aylana shaklida bo'lib, ularning o'rtasida albatta o'choq joylashgan. Bir o'choqli kichkina kulbalar bilan bir qatorda bir necha o'choqli, yirik uzunchoq shakldagi kulbalar ham keng tarqaladi. Bu o'choqlarda qalin kul qatlami, oziq-ovqatlarning qoldiqlari hozirgi kunimizgacha saqlanib qolgan.[1]

Yuqori paleolitning eng katta yutug'i antropogenez jarayonining tugallanishi va hozirgi qiyofadagi odamlarning shakllanishi edi. Odam o'zining rivojlanish jarayonida «maymun odam» (pitekantrop)dan «ishbilarmon odam» (homo habilis) ga so'ngra «ongli odam» (homo sapiens) darajasiga etdi. Hozirgi qiyofadagi odam fanda «kramon'on odam»i deb ataladi. Ular yuqori paleolit davrida Osiyo hududlarini, Evropaning yuqori hududlarini egallagan. Bering bo'g'ozi orqali Amerika qit'asiga, Janubiy-sharqda Hindi-xitoy, Indoneziyadan Avstraliyaga, Tasmaniyaga va Tinch okeani orollariga siljigan va o'rnashgan.

Yuqori paleolitda hozirgi zamon tipidagi odamning shakllanishi bir vaqtning o'zida evropa, negr va mo'g'ul bashara irqlarining paydo bo'lishiga olib kelgan. Shuni alohida qayd qilish kerakki, odamlar o'rtasidagi irqiy tafovut bu inson hayoti va uning tabiat sirlarini bilib olish qobiliyati bilan bog'liq bo'lmagan ikkinchi darajali tashqi ko'rinish belgilaridir. Ular bir-birlaridan terisining rangi, soch va ko'zlarining shakli va rangi, muskullarining uzun-kaltaligi, bosh suyagining shakli va boshqa belgilari bilan farq qiladi. Ularning barchasi uchun pitekantrop, sinantrop va neandartal taraqqiyot bosqichlarini o'tish joiz bo'lgan va odamzodning homo sapiens bosqichini uch irqning har biri bir davrda bosib o'tgan. Evropa irqi odamlari asosan, Evropa hududlarida yashagan. Ular baland bo'yli, qomatli, bosh suyagi va yuzi uzunchoq, terisini rangi oq, ko'zlari ko'k, sochlari sariq bo'lib, Evropaning mavjud tabiiy sharoiti bu tipning ana shunday alomatlar bilan shakllanishini ta'minlagan. Negr irqi odamlari Afrikada tarqalgan. Ularning elkasi keng, boldir suyagi uzunroq, tishlari oldinga bo'rtib chiqqan, pastki jag'i uncha rivojlanmagan. Sochlari jingalak, qizg'ish qora rangda, labi yo'g'on bo'lgan. Olimlar ular sochlarining jingalakligi, terisining qizg'ish qora, lablarining va yuqori jag' tishlarining oldinga bo'rtib chiqishini Afrikaning issig'i bilan bog'laydilar.

Mug'ul irqi asosan Shimoliy, Markaziy, Sharqiy Osiyo uchun xarakterlidir. Bu irq vakillarining shakllanishida Osiyoning beto'xtov esib turuvchi izg'irin quruq sovuq shamoli, Markaziy Osiyo dashtlari, umuman bu mintaqaning tabiiy-geografik sharoiti asosiy rol ni o'ynagan. Mo'g'ul irqi vakillari past bo'yli, bosh suyagi dumaloq bo'lgan. Ularning yuzlari keng va qisqa, ko'zlarining qisq bo'lishiga Markaziy Osiyoning kuchli shamoli va uzoq muddatli oppoq qor qoplamasiga tushgan quyosh nurlarining aksi sabab bo'lgan.

Paleolitning so'nggi bosqichi 3 davrga bo'lib o'rganiladi:

- 1.Orinyak davri;
- 2.Solyutre davri;
- 3.Madlen davri.

Bu davrlar arxeologlar tomonidan Frantsiyadan dastlab topib o'rganilgan makonlar nomi bilan atalgan. Yuqoridagi bosqichlar Evropa paleoliti so'nggi bosqichiga xos bo'lib, boshqa hududlarga to'liq mos kelmaydi. Ammo moddiy madaniyatdagi xususiyatlar barcha mintaq va hududlardagi yodgorliklar uchun umumiydir.[5]

XULOSA. Paleolitshunoslik tobora yangi noyob yodgorliklar bilan boyib, paleoantropologik topilmalarni har tomonlama sinchiklab chuqur tadqiq etilishi bilan nafaqat arxantropning yashagan va tarqalgan hududlari kengayib, davri qadimiylashtirildi, balki, ularning bevosita avlodlari borasida fanda yangi fikr-mulohaza va g'oyalar paydo bo'ldi. Ma'lum bo'lishicha, arxantropning avlodlari — paleoantrop zamonamizdan qariyb 500 ming yil muqaddam shakllanib, 150—140 ming yilliklardan boshlab 100 ming yildan oshiqroq davr davomida neander-tallar bilan yonmayon yashagan ekan. Neandertallar esa odamzotning bevosita ajdodi hisoblanmagan.

O'rta Paleolit davrida ob-havo keskin pasayib, muzliklar davri boshlanadi. Havoning sovushi oqibatida va o'simlik dunyosi ham tubdan o'zgaradi. Issiq iqlimga moslashgan hayvonlarning bir qismi janubiy mintaqalarga siljib, qolgani halok bo'ladi. Ularning o'rnini yangi sharoitga ko'nikkan chidamli mamontlar, yungdor karkidonlar, uzun shoxli bizonlar, qo'toslar, bug'ular, arharlar va boshqa hayvonlar egallaganlar. Bu davrda ovchilik xo'jaligi takomillashib odam to'dalarining to'plari kattalashgan. Tosh va suyaklardan turli xildagi ov qurollarini yasash takomillashgan. Yirik hayvonlarga ommaviy ov qilish tufayli katta to'dalarga uyushgan qad. odamlar olov hosil qilishni kashf etganlar, gulxanlar yoqib, sovuqdan va xavf-xatardan saqlanishni, go'shtni o'tda pishirib iste'mol qilishni bilishgan. Yirik hayvon suyaklari, mamont tishlari va kuraklari hamda xodalardan jar, soy va ko'l yoqalarida yarim yerto'la kulbalar qurib, tomni hayvon terilari bilan yopib, sahniga po'staklar to'shshagan. Suyaklardan teshgich, bigiz, so'zan va ignalar yasab, terilardan yopinchiqlar tikib kiyishgan. O'rta Paleolit davri oxirida esa marhumlarni dafn etish marosimi paydo bo'lgan. O'rta Osiyoda 50 dan ortiq o'rta tosh davrining yodgorliklari topilib, o'rganildi. O'zbekistonda ular Toshkent viloyatida Obirahmat, Xo'jakent, Paltov, Ko'lbuloq; Samarqand viloyatida Omon-qo'ton, Qo'tirbuloq, Zirabuloq, Xo'jamazgil; Navoiyda Uchtut degan joylarda tekshirilgan. Hatto Surxondaryoning Boysun tumanida Teshiktosh unguridan o'rta Paleolit davriga tegishli 8-9 yashar bolaning qabri topilgan. Bu, shubhasiz, fan olamida jiddiy kashfiyot edi. O'rta Paleolit davrida ming yilliklar osha erishilgan hayotiy yutuqlar urug'doshlik jamoasi va uning ilk madaniyatini shakllanishiga asos bo'lgan.

References:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz-kelajak yo'q. T., O'zbekiston, 1998.
2. Gulomov Ya. O'zbekistonda arxeologiya. T.1956. 37-38 bet.
3. Al'baum L.I. «Balaliktapa». Tashkent, 1960
4. Gerasimov M. «Lyudi kamennogo veka». M.,1964
5. Masson V.I. «Poselenie Djaytun». M., 1971
6. Mirsaotov G. «Drevnie shaxti Uchtuta». T., 1973
7. Safarovich, N. B. (2022). Distribution of Modern Sports in Central Asia in Colonial Conditions (Late XIX and Early XX Centuries) Spread of Modern Sports in Middle Asia Under Colonial Conditions (End of the XIX Century-Beginning of the XX Century). CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY, 3(12), 21-29.
8. Nazirov, B., Qalandarova, M., & Maxmaraimova, P. (2023). O'RTA OSIYO VA QADIMGI XITOIY MUNOSABATLARI: BUYUK IPAK YO'LINING VUJUDGA KELISHI. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(1 Part 1), 27-30

9. Nazirov, B. (2022). БУГУНГИ КУНДА СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИДА ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СПОРТГА ЭТИБОР: ТАҲЛИЛ ВА НАТИЖАЛАР. Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси.
10. Nazirov, B. (2021). Полвонлар ўзбек халқининг маънавий ҳаётининг жисмоний таянчидир. ДАВР, ЗАМОН, ШАХС.
11. Назиров, Б. С. (2019). СУРХОН ВОҚАСИ-ПАЙҒАМБАР АВЛОДЛАРИ МАКОН ТОПГАН ЮРТ. MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS, 6

